XALQ DEPUTATLARI XOVOS TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 25-aprel VI-72-62-9-129-K/24 Xovos tumani

Xovos tuman mahalliy budjetining 2024 yil boshiga hosil bo'lgan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi budjet kodeksining 126-moddasiga hamda“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1.Xovos tuman hokimining tuman mahalliy byudjetining shakllangan qo‘shimcha manbalari (erkin qoldiq) hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan taklifi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xovos tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashining qarorlari asosida yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

3. Tuman mahalliy budejtining qo‘shimcha manbalari etib quyidagilar belgilansin:- tuman budjetining yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag‘lari;- tuman budjeti daromadlarining birinchi-uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha daromadlarni rejadan oshirib bajarilishidan;- davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tuman budjetiga tushgan mablag‘lardan;- “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tuman budjetiga tushgan mablag‘lari.

4. Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashi mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:- erkin qoldiq mablag’lari hisobidan mablag‘ ajratish 1-ilovaga muvofiq amalga oshirilsin va budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda budjet intizomiga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

5. Budjetdan mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlariga tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflash vazifasi hamda sarflangan mablag‘lar to‘g‘risidagi hisobotlarni Xalq deputatlar Xovos tuman Kengashga taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘lar tuman hokimligi axborot xizmati (S.Maxmudov)ga tumanning rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Nurmatov zimmasiga yuklatilsin.

8. Qaror rasmiy nashrda e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va

tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi B.Xudoyberdiyevga yuklatilsin.

Sessiya raisi

RAYIMNAZAROV
G‘OYIBNAZAR
EGAMNAZAROVICH

Xalq deputatlari Xovos tumani
Kengashining
2024-yil 25-apreldagi
VI-72-62-9-129-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xovos tuman 2024 yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan mablag‘ ajratilishi to‘g‘risida

ming so'mda

T/r	Xovos tuman budjet tashkiloti nomi	O‘zgartirishga taklif
	Xovos tumani bo'yicha jami	**276 509,5**
1	*Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash*	**260 000,0**
2	*Tuman tashkiliy-kadrlar guruhi rahbarlarini moddiy rag‘batlantirish*	**16 509,5**